


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirligi
Jamoatchilik kengashi raisi


B. Umurzakov
2024-yil 10-iyun

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi
Bayoni № 3

2024-yil 10-iyun

Toshkent shahri

Raislik qildi

B. Umurzakov - Jamoatchilik kengashi raisi

Ishtirok etdi:

Jamoatchilik kengashi a‘zolari, vazirlik markaziy
apparati tuzilma rahbarlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatini ochiqligini
ta‘minlash borasida olib borilayotgan ishlar

(Umurzakov, Hayitov, Qadirov, To‘rabekov, Abdukarimov, Umarova, Qalandarov.)

Yig‘ilishni O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Jamoatchilik Kengashi raisi B. Umurzakov ochib berdi va jamoatchilik kengashi a‘zolarini kun tartibiga qo‘yilgan masala bilan tanishtirdi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan ochiqlikni ta‘minlash borasida muntazam ishlar olib borilmoqda.

Vazirlik axborot xizmati ochiqlikni ta‘minlash maqsadida doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali matbuot anjumanlari, brifinglar,

media sayohatlar tashkil etish yo'li bilan aholiga tezkor ravishda axborot yetkazadi.

Bugungi kunda Hukumat portaliga ulangan vazirlikning yangi veb-sayt faoliyati yo'lga qo'yilgan unda **“ochiq ma'lumotlar” bo'limi tashkil qilingan.** Ushbu bo'limga ijtimoiy ahamiyatga molik ochiq ma'lumotlar va Byudjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ochiq ma'lumotlar o'z muddatida joylashtirib kelinmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-154-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar belgilab olingan. Qaror ijrosini to'liq ta'minlash maqsadida 182, 251-sonli vazirlikning ichki buyruqlari qabul qilingan.**

Bundan tashqari vazirlik tizimidagi o'zgarishlar va ochiqlikni ta'minlash borasidagi kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida joriy yil **28-fevralda “Ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni axborot resurslarida joylashtirish va yangilab borish tartibini belgilash to'g'risida” 33-sonli ichki buyruq qabul qilindi.**

Hujjatda Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan berilgan tavsiyalar asosida ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi hamda korruptsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holatlari indikatorlarning talablari to'liq shakllantirilgan.

Shu bilan birga Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining joriy yil 7 yanvar 03-18/80-sonli xatiga muvofiq, vazirlikning ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan xodimlari **“E-learning” ta'lim platformasida** qonunchilik va xalqaro standartlar talablari bo'yicha o'qitildi va sertifikatlar oldi.

Joriy yilning shu davriga qadar vazirlik va tizim tashkilotlari tomonidan **15 ta** brifing, **5 ta** prees-tur, media-rejalarda belgilangan tadbirlar ijrosi to'liq ta'minlangan hamda ijtimoiy tarmoqlarda ko'tarilgan sohaga oid **200 dan** ortiq tanqidiy materiallarga Vazirlik tomonidan o'z muddatida munosabat bildirilgan.

Vazirlik faoliyati bilan bog'liq **20 ta xorijiy, 400 dan ortiq** Respublika miqyosidagi OAVlarda chiqishlar tashkil etilgan. Shuningdek, vazirlik va tizim tashkilotlari faoliyatiga doir axborotlar, hisobotlar farmon va qarorlar asosida aholiga yaratilayotgan **qulaylik va imtiyozlar oddiy, sodda, xalqchil tilda yetkazilmoqda.**

Buning natijasida vazirlikning **Telegramm** kanalidan foydalanuvchilar soni **49 mingdan, Instagramm** tarmog'ida esa **59 ming, Fasebook** tarmog'ida

esa 24 mingdan oshgan.

“Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlariga muvofiq Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan **ochiqlikni ta‘minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligi baholanib, Ochiqlik indeksi natijalari e‘lon qilinib kelinmoqda.**

2023-yil yakunlarini baholashlar vaqtida byudjet jarayonini ochiqlash bo‘limidagi ma‘lumotlarni texnik sabablarga ko‘ra havolar orqali ochilmaganligi tufayli e‘lon qilingan ma‘lumotlar hisobga olinmagan. Ushbu kamchilik bugungi kunda bartaraf qilingan va barcha ma‘lumotlar yangi tashkil qilingan veb saytga joylangan.

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik kengashi a‘zolari tomonidan yig‘ilishda vazirlik faoliyati ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha bildirilgan fikr-mulohazalar taklif sifatida tayyorlanib taqdim etilsin.
2. Jamoatchilik kengashining o‘tkazilgan yig‘ilishi vazirlikning rasmiy veb-saytida yoritilishi ta‘minlansin.

Bayonlashtiruvchi



J.Qalandarov